

Assalom, «Yoshlar yili»!

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong

YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

2007-yil
24 - dekabr
№: 52
(66645)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

YANGI AVLOD UCHUN ULKAN IMKONIYATLAR

Mamlakatimizda bu yil «Yoshlar yili» deb e'lon qilingani barcha-barchamizni xushnud etdi. Yurtimizda katta-yu kichik – hamma bu xabarni quvunch bilan kutib oldi. Hur va mustaqil respublikamizning 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 10 million 360 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini tashkil etadi. Bu juda katta kuch. Bu mamlakat qudrati, ertangi yangi istiqbol, buyuk kelajakning ishonchi va tayanchi hamdir. Bil'aks, Prezidentimiz o'z nutqlarida yoshlarimizni hayotimizning hal qiluvchi kuchiga aylantiruvchi masalasi jamoatchilikning diqqat markazida turishini, 2008-yilni «Yoshlar yili» deb e'lon qilinishi munosabati bilan maxsus Davlat dasturini ishlab chiqishni ham alohida ta'kidlab o'tdi.


Bu Siz uchun, sizning istiqbolingiz va kelajagingiz uchun qilinayotgan ulkan sa'y-harakatlarki, aziz ukajonlar, shu g'amxo'rliklarga yarasha a'lo o'qib, xalqimizning munosib farzandlari bo'lib yetishish burchingiz va vazifangizdir.

Bugun Sizlarga havas bilan qarayotganlarning son-sanog'i yo'q. Siz uchun hamma qulayliklarga ega bir-biridan chiroyli o'quv yurtlari, akademik-litsey va kollejlari, zamonaviy o'quv qurollari va jihozlari bilan ta'minlangan sinf xonalari, lingafon kabinetlari ixtiyoringizga berib qo'yilganki, shu yangi avlod o'qisin, bilim olsin, komil inson bo'lsin, ertaga hayotdan yo'lini topib, baxtli insonlar qatorida yursin, deb niyat qilmoqda. Ana shu ishlar uchun Davlatimiz byudjet va byudjetdan tashqari 5 milliard dollardan ortiq mablag'lar yo'naltirildi. O'tgan davr mobaynida 1 ming 140 ga yaqin akademik-litsey va kasb-hunar kollejlari 4 ming 680 tadan ziyod umumta'lim maktablari yangitdan qurilib, kapital ta'mirlandi.

Fan, sport va boshqa sohalarda allaqachon nom qozonib, jahonni qoyil qilgan yoshlar haqida yil davomida xabar, maqola, lavhalar berib bordik. Ularning ro'yxatini keltirish uchun gazetamizning ko'plab sahifalari torlik qilib qoladi. Biz ularning barchasini yana bir karra erishgan yutuqlari bilan qutlab, yangi zafarlar yor bo'lishini tilab qolamiz va o'ylaymizki, O'zbekiston bayrog'i ularning zafar quchgan qo'llarida doimo hilpirab turadi. Yangi 2008-yil hammamizga muborak bo'lsin! Assalom, Yoshlar yili, assalom, Yangi 2008-yil!



Bu bizning eng sevimli gazetamiz!



«YANGI YILDAN UMIDIM KATTA»


Jo'ra IBROHIM,
O'z M U
jurnalistik
fakultetining
1-bosqich talabasi:

«Kelajak ovozi!» Bugun yurtimizda bu nomni eshitmagani, bilmagan biror-bir yosh bo'lmas kerak. An'anaviy tus olgan ushbu tanlovda bu yil 32000 nafar yosh iste'dod egalari ishtirok etishdi. Tanlov g'oliblari safida turarkanman, biz yoshlarga qaratilayotgan bunday e'tibor zimmamizga katta bir mas'uliyat yuklashini his qildim.

Poyoniga yetayotgan ushbu yilimiz hayotimda katta o'zgarish yasadi, desam mubolag'a qilmagan bo'laman. «Nafosat» yosh qalamkashlar Respublika tanlovida g'olib bo'ldim. Eng muhimi – talaba bo'ldim!

«Yoshlar yili»da oldimda yana-da kattaroq dovonlar turibdi. Turkiy xalqlarning katta bir eposini tarjima qilishni boshlaganman. Yangi yilda tarjimamni yakunlayman. Shuningdek, jahon hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini o'rganaman.

Yangi yil ostonasida turar ekanmiz, tengdoshlarimga tilagim shu: yuraklarida qanday orzulari bo'lsa, bariga erishsinlar!



BOYLIK VA MO'JIZA

Qorni ko'p kuzatgansiz: ajabo, uning uchqunlari, ya'nigo'zal shakllari Sizni hayratga soladi. Hatto eng mohir musavvir ham uni alohida-alohida yaratolmaydi. Sababi, har bir qor uchquni takrorlanmas mo'jizadir. Qor qalinligi 50 sm. bo'lgan har kvadratda 1.000.000 dona atrofida qor uchqunlari bor. Har bir zarrasi osmondan tushgan eng mukammal san'at asariga o'xshaydi.

Yoshlikda odam faqat issiq kunlar ko'p bo'lishini xohlaydi, hatto shunday bo'ladiki, qor yog'ib, qattiq sovuq bo'lgan kunlari dunyo ko'zingizga fayzsiz ko'rinadi. Ammo bu aldanchi taassurotlar. O'sib-ulg'ayib, oq-qorani taniganingizdan so'ng, qor katta boylik ekanligini idrok etasiz. Ayniqsa, bizning mintaqamiz uchun qishning o'z vaqtida, me'yorida bo'lishi to'kinchiligimizni ta'minlaydi. Tog'larga qor qancha

ko'p tushsa, yoz davomida suv shuncha ko'p bo'ladi. Chunonchi, bu g'alla, paxta, poliz ekinlari, uzum, anor, behi, yong'oq va boshqa meva-chevalarning

ko'p bo'lishi ham demakdir.

Ko'rdingizmi, dunyo da o'zi yo'q.

Qor haqida she'r yozmagan shoir ham bo'lmas kerak.

Shoir Yo'ldosh Sulaymon bunday yozgan ekan:

*Yer to'ysin deb bir yo'la –
Qor gupillab yog'yapti.*

Go'yo osmon un elar,

Havosi ham yoqyapti.

Yurganida iz qolsa,

Qor uni tez yopyapti.

Kuchugim ham oqarib,

Atrofimda chopyapti.

Momojonim oynadan,

Xursand bo'lib boqyapti.

Ust-boshimga qarang, qor

Yulduzchalar taqyapti.

Haqiqatan, shirin she'r. Sizning ustingizga ham yulduzchalar taqsin qor.

Siz uchun ham, aziz yoshlar, Yangi yil sharafli va qutlug' kelsin!

Mirkamol ODILOV,

Toshkent metropoliteni boshqarmasi boshlig'i:

– Ko'zlari quvonchdan porlab turgan o'g'il-qizlarimizni kirib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan jamoamiz nomidan qizg'in qutlayman. Ularga baxt-saodat, uzoq-umr tilayman. Ertamiz egalari bo'lmish bolajonlarimizning kundalik daftarlari hamisha «a'lo» va «yaxshi» baholarga kon bo'lsin.



Shafolat Rahmatullo TERMIZIY

SENGA HAVAS QILAMAN

(O'g'illarim Humoyun bilan Husaynga atalgan she'r)

Guldek bola gullar o'psin labingdan,
To'tiqushlar saboq olsin gapingdan,
O'rgilayin bolalik mansabingdan,
Bola, mansabingga havas qilaman,
Seni ulug', o'zimni past qilaman.

Tulpor bo'lar mingan xivich otlaring,
Tegrang to'la jo'ralaring, yotlaring,
Qutlug' sening shohliklaring, motlaring,
Bola, mansabingga havas qilaman,
Seni ulug', o'zimni past qilaman.

Kulsang, ko'zing ko'kka yulduz sochadi,
Gar yig'lasang, buloqlar ko'z ochadi,
Sen bor joyda g'amlar turib qochadi,
Bola, mansabingga havas qilaman,
Seni ulug', o'zimni past qilaman.

Umring sening o'qilmagan kitobdir,
Ulg'aytirib o'tar kunlar shitobdir,
Bor vujuding hali hayrat, xitobdir,
Bola, mansabingga havas qilaman,
Seni ulug', o'zimni past qilaman.

Bellaringga, belbog', qayish bo'layin,
Mehmongga soqi, sais bo'layin,
To'yuringga o'zim rais bo'layin,
Bola, mansabingga havas qilaman,
Seni ulug', o'zimni past qilaman.

SHAHAR

Obuna davom etmoqda!

ORTDA QOLMASIN!

2008-yil yaqinlashgani sayin tahririyatga obuna bo'lish istagida kelayotgan o'quvchilarimiz soni ko'payib bormoqda. Bayram arafasida nafaqat o'quvchilar, balki mutasaddi xodimlar ham obunaga befarq emasliklari quvonarli hol, albatta. Ana shunday bir pallada TSHXTBB Metodika markazi uslubchisi Dilorom Yusupovaga bir necha savollar bilan murojaat etdik:

– Dilorom opa, Toshkent shahri bo'yicha nechta maktab bor? Ushbu maktablarda «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lganlar soni qanchaga yetdi?

– Shahar bo'yicha hozirgi kunda 299 ta maktab bor. Ana shu maktablarning barchasiga «Tong yulduzi» gazetasi yetib borishi uchun har bir tumanga reja asosida obuna qilish vazifasi topshirilgan. Shu kunga qadar obunachilar soni Yunusobod tumanida 480 ta, Sobir Rahimov tumanida 450 ta, Chilonzor tumanida 360 ta, Hamza tumanida 250 ta, Yakkasaroy tumanida 120 ta, Bektemir tumanida esa 35 taga yetdi.

– Bu ko'rsatkich shahar uchun kam emasmi, nima deb o'ylaysiz?
– Hozirgi kunda turli nashrlar ko'payib ketgani uchun ular orasida raqobat ham kuchaygan. Shunga qaramay, bu ko'rsatkichlar sonini yana-da ko'paytirishga harakat qilamiz.

– Albatta, respublika bo'yicha har bir viloyat ushbu ishga mas'uliyat bilan yondoshayotgan bir pallada ishingizga omad tilab, «Toshkent shahri orqada qolmasin!» deb qolamiz.

Gulyuz BAHODIR qizi

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR: To'liqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Rassomlar: Nodira MIRZAYEVA, Feruz MATYOQUBOV

Dizayner va sahifalovchi:
Elyor
ESHCHONOV
Navbatchi:
Ozoda
TURSUNBOYEVA

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel./faks:
(99871) 144-38-10

Gazeta «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida
chop etildi.
Gazeta haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 18363
Buyurtma N: J 4476

ASSALOM, 2008-YIL!



Tong yulduzi 2007
24-30 - dekabr



Xudoyberdi TO'XTABOYEV,
O'zbekiston Xalq yozuvchisi:

Aziz bolajonlar, Siz ham eshitganmisiz, dili pok, samimiy insonlarning tavallud kunlari ham xayrli, faraxbaxsh kunlarga to'g'ri keladi, deyishadi. Bu fikrning asosli ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik. Yurtimizda Qurbon hayiti tantana qilinayotgan, shuningdek, Yangi 2008-yilimiz betoqatlik bilan eshik qoqayotgan ayni kunlarda, ardoqli adiblarimiz Xudoyberdi To'xtaboyev tavallud kunlarini nishonladik. Sevimli shoirimiz Anvar Obidjonning tug'ilgan kunini nishonlash arafasidamiz.

Fursatdan foydalanib, ijodkor bobojonlarimizni chin dildan muborakbod etamiz. Biz yoshlar shunday bobolarimiz borligidan doimo faxrlanib yuramiz.



Anvar OBIDJON,
O'zbekiston Xalq shoiri:

Qizdirsiz, o'g'ildirsiz – hammangiz ham mening jonimsiz, jahonimsiz, bugunimsiz, ertamsiz. Quvonchim ham, tashvishim ham sizlarning o'zingizsiz. Shuning uchun ham quvonamanki, sihatsiz, salomatsiz, xuddi bo'liq yerga ekilgan niholdek «gurkirab o'sayapsiz».

Hammangizni yaxshi ko'raman.

Biz ham Sizni juda yaxshi ko'ramiz, ertakchi bobo! Yangi yilda Sizdan yangi-yangi romanlar, ko'plab qissa va ertaklar kutib qolamiz. Ularni yozish uchun esa doimo sog'-salomat bo'lishingiz shart!

– Yangi zamon – yoshlarning zamoni. Shuning uchun ularning zimmasida juda katta mas'uliyat bor. O'zlarining ajdodlari boshlab bergan an'analarni davom ettirib qolmay, bularni yana-da boyitish ularning vazifalari sanaladi. Shunday ekan, har bir yosh yigit-qizga o'z ota-onasiga, oilasiga va albatta yurtiga munosib farzand bo'lib yetishish saodatini tilayman.

Samimiy tilaklaringiz uchun tashakkur, masalchi bobo! Niyat qilganingizdek, komil inson bo'lishga harakat qilamiz. Lekin buning birgina sharti bor: siz ham hamisha yonimizda bo'lasiz, bizlarni maqtab, ezgu ishlarga ruhlantirib turasiz.



«Ijtimoiy himoya yili»miz poyoniga yetib, Yangi yil bo'sag'asida turgan ayni kunlarimizda har birimiz umrimizni sarhisob qilishga intilamiz. Ortimizga nazar tashlab, yil

tumanida joylashgan Tinchlik shirkat xo'jaligiga qarashli Qoratepa qishlog'ida dunyoga kelgan bobomning bolalik damlari suronli urush yillariga to'g'ri kelgan. O'sha davrda sharoit qanchalar og'ir bo'lmasin, bobom tirishqoqlik bilan o'qiganlar. Qishloqdagi 4-o'rta ta'lim maktabini, keyinchalik mehnatdan ajralmagan holda Toshkent avtomobil yo'llari institutini imtiyozli tamomlaganlar. Mehnat faoliyatini oddiy ishchilikdan boshlab, paxta tozalash zavodi rahbari, Mirzo Ulug'bek shirkat xo'jaligi raisi lavozimigacha ko'tarilgan bobojonim yoshlik shijoati, kuch-g'ayratini yurtimiz obodligi, xalqimiz farovonligi yo'lida sarflab kelyaptilar. Mahalla ko'chalarini asfaltlab, ichimlik suvi hamda tabiiy gaz olib keldilar. Tumandagi kam ta'minlangan oilalarning ko'pchiligidan beminnat yordamini ayamayotgan bobojonim mahalla nuroniyalarini ham unutganlari yo'q: ular uchun masjid qurdirib berdilar. Mana, 20 yildirki,

qishloqdagi 3-maktabga homiylik qilib keladilar...

Eh-he, ular amalga oshirayotgan ezgu ishlarni sanayversam, adog'i bo'lmaydi. Buvijonim bilan muborak Haj safariga borib kelgan bobom bunday imkoniyatlar yaratgan istiqolning sharofatidan behad mamnunlar.

Tinib-tinchimas bobojonim nafaqaga chiqib ham ko'k choy ichib, yonboshlab yotganlari yo'q. 80 gektar yerda dehqonchilik bilan shug'ullanib, fermer xo'jaligiga rahbarlik qilib kelyaptilar.

2008-yilning «Yoshlar yili» deb nomlanishi bobojonimni behad quvontirib yubordi.

«Bolajonlarim, siz baxtiyor avlodsiz. Siz uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalaning», deya nasihat qiladilar bizga doimo.

Biz ham «Ilhom hoji otaning nabirasi» degan nomga munosib bo'lish uchun astoydil harakat qilyapmiz.

Nodira TURG'UNOVA,

Chilonzor maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kollejining 1-bosqich talabasi

HOJI BOBOM BOR MENING

davomida nimalar qildig-u, nimalarga ulgura olmay qolganimiz haqida fikrlaymiz.

Men bobojonim Ilhom ota Qozoqboyevning qilgan ezgu ishlari bilan haqli ravishda faxrlana olaman. 1941-yilda Toshkent viloyatining Yangiyo'l

ular uchun masjid qurdirib berdilar. Mana, 20 yildirki,

SIZ UCHUN 2008-YIL QANDAY KELISHI KUTILMOQDA

QO'Y (21-mart – 20-aprel) – Hayotingizni yaxshi tomonga o'zgartirish imkoni bor. Qaror qabul qilishdan cho'chimang.

SIGIR (21-aprel – 21-may) – Qobiliyatingizni namoyon etish fursati yetdi. Bilim va iqtidoringiz, qiziqishingiz hayotda yangi omadlarga yetaklashi kutilmoqda.

EGIZAKLAR (22-may – 21-iyun) – Yangi 2008-yilda bo'ladigan o'zgarishlardan birmuncha tashvishga tushasiz. Ammo shaxsiy ishlaringizda sizni omad kutmoqda.

QISQICHBAQA (22-iyun – 22-iyul) – Yanvar oyi ortiqcha tashvishlarsiz, osoyishta keladi. Hayotingizdagi kichik o'zgarishlarni odatdagidek qabul qiling.

ARSLON (23-iyul – 23-avgust) – 2008-yil Arslon uchun kutilmagan yangiliklarni olib kelishi kutilmoqda. Sabrli va matonatli bo'lishingizga to'g'ri keladi.

BOSHOQ (24-avgust – 23-sentabr) – Mehnatsevar va mas'uliyatligingiz evaziga kelayotgan 2008-yilda omad sizga kulib boqadi.

TAROZU (24-sentabr – 23-oktabr) – Turli ishlarda faolligingiz bois oila a'zolaringiz, do'stlaringiz oldida obro' qozonasiz. Qiziqishlaringizga bee'tibor bo'lmang.

CHAYON (24-oktabr – 22-noyabr) – Yangi yil boshidanoq reja asosida ish tuting. Bu bilan barcha ishingizda muvaffaqiyatga erishasiz.

YOY (23-noyabr – 21-dekabr) – 2008-yil boshi Yoy uchun omadli keladi. Yaxshi fazilatlaringizni namoyon etishga imkoniyat tug'ilmoqda.

TOG' ECHKISI (22-dekabr – 20-yanvar) – Kelayotgan yangi yil Tog' echkisiga omad va baxt olib kelmoqda. Tirishqoqligingiz evaziga taqdirlanasiz.

QOVG'A (21-yanvar – 18-fevral) – O'zingiz uchun yangi imkoniyatlarni ochishingiz mumkin. Ijodiy ishlaringizda sizni omad kutmoqda.

BALIQ (19-fevral – 20-mart) – Yangi 2008-yilda ko'pgina istaklaringizga yetishasiz. Do'stlaringiz soni ortib boradi. Atrofdagilaringiz bilan bo'lgan muloqot orqali ijobiy fikrlar tug'ilishi kutilmoqda.

OYIJON, KELIN OLING

Yetti yoshli Boburjon bemor yotgan oyisining yoniga keldi-da, dangal-dangal gapira ketdi:

– Oyijon, mana, xastalanib yotib qoldingiz,

– dedi u onasining mehnatdan qavargan qo'llarini ushlar ekan. – Kelin olmasangiz bo'lmaydi. Hamma ish boshingizda.

– Voy, bolam, kelinni kimga olaman, – dedi oyisi ko'zi chaqnaq. – Sen hali yosh bo'lsang. Birinchi

muhabbating bilan gaplashaylikmi?

– Yo'q, u bo'lmaydi, juda ham nimjon, nima ish qilib berardi? O'zim bilan birga maktabda o'qiydigan Orzugul, do'mboqqina, qo'lchalari ham baquvvat. O'sha bo'ladi, oyi.

– Voy, bolam, – deganicha oyisi boshini ushlab yig'lab yubordi...

ELSEVAR, Namangan viloyati

XANDALAR

– Bo'laqol, maktabingga kech qolasan, – shoshirdi ona o'g'lini.

– Xavotir olmang, oyijon, maktabimiz eshigi kechgacha ochiq turadi, – dedi o'g'li beparvolik bilan.

O'qituvchi o'quvchidan so'radi:

– Nega darsda ovqat yeb o'tiribsan?

– Tanaffusda bemalol o'ynay deyapman-da, ustoz...

Hovliqib yugurib ketayotgan bolakay bir kishiga urilib ketibdi.

– Qayerga shoshyapsan? – so'rabdi haligi kishi undan.

– Uyga, oyim tezroq ta'zirimni bersinlar.

– Jazo olish uchun bunchalar oshiqadigan bolani birinchi ko'rishim.

– Dadam ishdan kelib qolsalar, jazoimni ular berishlariga to'g'ri keladi-da.

Ota o'g'lining matematikadan olayotgan bilimni sinab ko'rmoqchi bo'lib so'radi:

– Menda 10 ta olma bor edi, ikkitasini yeb qo'ydim. Menda nechta olma qoldi?

– Bilmadim, biz maktabda masalani apelsinlarda yechamiz.

AZIZA tayyorladi

„PAQILDOQ O'YNAMASANG...“

Bir kuni ko'chadan o'tib ketayotib, sinfdoshim Dostonni ko'rib qoldim. U bir quti paqildoq sotib olgan ekan.

– Uyingdan gugurt olib chiq, mazza qilib paqildoq o'ynaymiz, – dedi u.

– Paqildoq paqillatishning nimasi «mazza» ekan? Hamma bizga yomon ko'z bilan qaraydi-yu, – dedim ters burilib. U esa mening gapimni pisand ham qilmay:

– Paqildoq o'ynamasang, yurgan ekansan-da o'g'il bolaman deb, – deya mazax qildi. Alamimga chiday olmay, uyimdan gugurt olib chiqdim. Kechgacha paqildoq paqillatib, hammani «qo'rqitdik». Bundan o'zim ham qanaqadir «mazza» topayotgandek edim. Birdan quloqlarimga omburdek yopishgan qo'llardan o'zimga keldim. Dostonni qidirsam, u allaqachon «quyon» bo'libdi. Qulog'imni cho'zayotgan kimligini bilish uchun o'girilib qaragam, mahallamiz oqsoqoli ekan.

– Seni tushungan, ziyoli kishilarning bolasisan, desam, qilib yurgan ishingni qara, – dedilar dag'dag'a bilan. Ular meni uyimga olib bordilar. Ota-onamdan rosa gap eshitdim. Ertasi kuni Dostonni ko'chada ko'rib qoldim. U yana bir quti paqildoq olganini, bugun boshqa mahallada paqillatishimni aytdi. Ammo men bu safar uning gaplariga quloq solmadim. Unga javoban:

– Do'stingni tutib berib, yurgan ekansan-da o'g'il bolaman deb, – deya pisanda qildim.

*Sunnatbek MADAMINOV,
Toshkent viloyati, 3-sinf o'quvchisi*

DASTURXON TO'LA BO'LSIN!

AFG'ONCHA NAPOLEON

Kerakli masalliq: 6 ta tuxum, 2 ta «Sana» margarini, 3 st. un, 250 gr. qaymoq, 1,5 st. shakar, 1 ta jigarrang quyultirilgan sut, 1 st. yong'och, maydalangan kokos, vanilin.

Tayyorlanishi: margarin qirg'ichdan chiqarilib, un bilan aralashiriladi. Ustiga tuxum sarig'i, qaymoq, vanilin qo'shib xamir qoriladi. 3 zuvalaga bo'lib, muzlatkichda tindiriladi. Tuxum oqi ko'pirtirilib, shakar qo'shiladi. Tingan xamir gaz patnisiga yoyilib, ustiga tuxum oqi suriladi. Uning ustiga yong'och sepib, gaz pechiga qizarguncha qo'yiladi. Qolgan ikki zuvalasi ham shunday pishirib olinadi. Pishgandan so'ng, orasiga krem surilib, ustiga maydalangan kokos sepiladi.

Kremi: 1 ta quyultirilgan sutga 250 gr. sariyog' aralashiriladi.

Mana, aziz bolajonlar, Yangi yil ham eshik qoqmoqda. Aytishlaricha, Yangi yil kechasi dasturxonningiz turli noz-u ne'matlarga to'la bo'lsa, yil davomida ushbu to'kin-sochinlik xonadoningizni tark etmas ekan. Umid qilamizki, Siz ham bayram dasturxonini bekam-u ko'st tuzashni rejalashtirib qo'ygansiz. Ushbu pishiriq va salat bayram dasturxonigizga yana-da fayz kiritadi, deb o'ylaymiz.

«YANGI YIL» SALATI

Kerakli masalliq: 8 bog' salat bargi, 4 dona tuxum, 100 gr. go'sht, 1 banka jo'xori, mayonez, tuz.

Tayyorlanishi: salat bargi o'rtacha kattalikda, qaynatilgan tuxum va go'sht somoncha shaklida to'g'raladi. Kattaroq idishga sofib, jo'xori, mayonez, ta'bga ko'ra tuz solib aralashiriladi. Chiroyli likobchalarga solinib, dasturxoniga tortiladi.


Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Samandar SOATOV poytaxtimizning Sobir Rahimov tumanidagi 395-bolalar bog'chasiga boradi. U hali kichkina bo'lishiga qaramay, sportga, kitob o'qishga juda qiziqadi. Samandar sport sohasida yutuqlarga erishib, akalari Sardor va Isfandiyorni ortda qoldirmoqchi.



OCHKO'ZLIKNING OQIBATI




Qishning izg'irinli kunlarining birida Tolmas ko'chadan mushukcha topib oldi. Mushuk sovuqda ko'p qolib ketganidanmi, tinmay titrardi. Bolaning mushukka rahmi kelib, uni uyiga olib ketib, parvarishlay boshladi. Tolmas mushugini hech kimga ishonmas, uni o'zi ovqatlantirardi. Mushuk kundan kunga katta bo'la boshladi. Ammo u katta bo'lgani sayin yomon qiliq chiqara boshladi: oshxonaga kechalari kirib olib, hamma narsalarni ag'dar-to'ntar qilib, yana ovqat qidirishni odat qilib oldi. Uy egalari, shuningdek, Tolmas ham mushugidan xafa bo'ldi. Ammo, nailoj... Uni qayta tarbiyalab bo'larmidi? Bir kuni mushuk yana odatdagidek o'g'irlik qilgani oshxonaga kirdi. U avvaliga non xaltaga kallasini tiqdi. Undagi nonni chala-yarim yedi. Keyin qatq qatq itilgan ko'zaga boshini tiqdi. Ammo qatq ko'zaning tagidagina qolgan ekan. Mushuk kallasini yana ham ichkariroq tiqdi. Qatqni ichib bo'lgach, boshini ko'zadan tortib olmoqchi bo'ldi. Ammo harchand urinmasin, kallasini ko'zani tark etay demasdi. U joni boricha miyovlay boshladi. Yaxshiyamki, ochko'z mushukning baxtiga Tolmas hali uxlamagan ekan. Mushugini bezovta bo'lib miyovlayotganini eshitib qolib, oshxonaga yugurib kirdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, ochko'z mushuk ko'zadan boshini chiqarolmay halak edi. Tolmas mushugining boshini ko'zadan amallab chiqarib oldi. Shu-shu mushuk

Tolmasning bergan ovqatiga qanoat qiladigan, oshxonaga behudaga kirmaydigan bo'ldi.

*Bibiniso ARSLONOVA,
Jizzax viloyati, Forish tumani*

SABOQ BO'LDI



Boshqa maktablarda qanday bilmadim-u, bizning maktabimizdagi oshxonada qo'li shirin oshpazlarimiz shirindan-shakar ovqatlar tayyorlashadi. Sinfdoshim Akbar esa doim maktabimiz yoniga ovqat olib keladigan xoladan xonim sotib olardi. Biz unga qanchalik tayinlamaylik, gapimizga sira quloq solmasdi. Bir kuni u xonim yedi-yu, darsning oxiriga

yetmay qorni og'rib qoldi. Biz uning nega bunday ahvolga tushganini darrov fahmladik.

– Boya xonim olganimda, g'alati hid kelgan edi, – dedi Akbar o'ziga kelgach. Biz Akbarga ko'chadan ovqat olish mana shunday yomon oqibatga olib kelishini yana bir bor tushuntirdik. Endi u har kuni biz bilan maktab oshxonasida ovqatlanadigan bo'ldi.

*Akobar NOSIRXO'JAYEV,
poytaxtimizdagi 102-maktabning 7-«G» sinf o'quvchisi*





«YANGI YIL»



TOPSHIRIQLI SKANVORDI

Avvalo, skanvord javoblarini shakldagi yo'nalishli xonadan yo'ylar bo'yicha yozing. So'ng, shakl atrofidagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi taalluqli harflar bilan almashtirib, topshiriqni hal eting. Bunda ulardan tabrik so'zlarimizni bilib olasiz.

ONA TABIAT

Havosi shifobaxsh, serquyosh o'lkam,
Ona tabiatning fusunkor, ko'rkam.
Zilol suv, ona yer, musaffo havo,
Bu ne'mat Oллоhdan beminnat ravo.
O't-o'lan, xarsang tosh, shifobaxsh giyoh,
Bariga mehr-la tashlagin nigoh,
Yurtimga ko'rk bo'lib o'sar har joyda,
Barisi shubhasiz keltirar foyda.
Tabiat go'zallik etganda in'om,
Dillarda shuuri uyg'otar ilhom.
Dilovar maskandir, serjilo, so'lim,
Mening ona yurtim - hur Yangiyo'lim.
Biz sevgan tabiat ilohiy ne'mat,
Qadriga yetaylik, chunki g'animat.
Shu bois onadek biz ardoqlaylik,
Munosib farzandlik burchin oqlaylik.

*Nasiba AHMADJONOVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahridagi
16-o'rtta maktab o'quvchisi*



QORQIZ QO'SHIG'I

Oppoq ko'ylak kiydim-u,
Men aylandim Qorqizga.
Sochlarim oq, ko'nglim oq,
Ko'zim o'xshar yulduzga.

Men Qorqizman, Qorqizman,
Oq nurlarga egizman.

Nabiraman men qishga,
Olam to'lsin xonishga.
Faqat omad tilayman,
Sizga a'lo o'qishga.

Men Qorqizman, Qorqizman,
Oq nurlarga egizman!
*Mehribon SHOMURODOVA,
Xorazm viloyati,
Bog'ot tumanidagi
12-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi*

ORZU



Yuragimda to'la ajib his,
Talpinaman qayonga bilmam.
Kiprigimda ming yillik orzu,
Sevishgandan kuladi qalam.

Oppoq libos kiygan malakday,
Keng ko'chadan o'tadi tuyg'u.
Kurashaman oldinga qarab,
Orzularim, sizni deb mangu.

Hamon ko'ngil sizga shodumon,
Siz oshiyon qurgan dil obod.
Orzularim, keling yonimga,
Baxt qasrini etaylik bunyod.

*Azizaxon ZAYNUTDINOVA,
Toshkentdagi 249-maktabning
8-sinf o'quvchisi*

QOR

Derazamdan mo'ralayman,
Tashqarida yog'ar qor.
Yer bilan bir tovlanadi,
Qor emas u, go'yo zar.

Qish ziynati buncha go'zal,
Ziynatmas, bu mo'jiza.
Qor va mening o'rtamizda,
To'kis o'sha deraza.

Qani endi yog'ayotgan
Kumush qorga aylansam.
Yolg'iz qolgan majnuntolning,
Atrofiga joylansam.

«Qanday go'zal bugun borliq»,
deb baqirgum, qilmay or.
Xayolimda mangu qoldi,
O'lkamizga yoqqan qor.

Latofat YUSUPOVA

ODAMLAR NIMA DEB O'YLAYDI SENI?

Xayol og'ushida mast bo'lsang agar,
Tuproqday beozor past bo'lsang agar,
Xayol-u hayotda rost bo'lsang agar,
Odamlar nima deb o'ylaydi seni?

Tilida o'zga so'z, dilida g'araz,
Yurakda hasad-u, yuzida hasad,
Lablari kulsa-da, ko'nglida araz,
Odamlar nima deb o'ylaydi seni?

G'ururi bo'lmagan e'tiqodi yo'q,
Nomus nimaligin bilmaydi hatto.
Mish-mishlar ichida yashar ko'ngil to'q,
Odamlar nima deb o'ylaydi seni?

*Oqjamol RO'ZIYEVA,
Sergeli tumani kasb-hunar
kollejining 3-bosqich talabasi*

Senday sof bo'lsaydi barcha tilaklar

Oppoq osmonimda mehmon bo'lgan qor,
Senday sof bo'lsaydi barcha tilaklar.
Har bir uchquningda ko'p hikmat bisyor,
Sening-la quvonchga to'lar yuraklar.
Erinmay maydalab yog'asan hamon,
Har zarrangga boqib nigohim shoshar.
Ko'nglim yasharadi ko'rganim hamon,
Qalbimda zavq-u shavq, ishtiyoq oshar.

*Nodira MURODOVA,
Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumani*



ONAJON

Yashab o'tdim necha oy-u yillarni,
Dadil bosdim necha to'siq yo'llarni.
Olovlarda yonmaguncha shirin jon,
Qadringizga yetmabman-a, onajon.

Olamda siz bir jahonsiz jonajon,
Boshim uzra bir xoqonsiz soyabon.
Devorlarga urilmasdan peshonam,
Qadringizga yetmadim-a, onajon.

Bu kun tilimdadir bir shirin kalom,
Siz deb to'lg'anadi qo'limda qalam.
Siz mening dunyomsiz, siz cheksiz olam,
O'rningizni bosolmas hech qaysi odam.

*Zuxnina MAMATOVA,
Surxondaryo viloyati,
Qumqo'rg'on tumanidagi
16-o'rtta maktabning 9-sinf o'quvchisi*

QORBOBONING SARGUZASHTI



(Ertak)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Hamisha qish hukmronlik qiladigan o'lkada bir Qorbobo yashar ekan. Uning kattagina ustaxonasi bo'lib, o'z qo'li bilan bolajonlar uchun Yangi yil sovg'alarini yasarkan.

Yangi yil arafasida ustaxonada ish qizg'in pallada eshik taqillab qolibdi. Qorbobo eshikni ochsa, mittigina Elf turganmish.

– Bobojon, mening boradigan joyim yo'q, yolg'izlikdan juda zerikyapman. Siz bilan birga yashasam maylimi? – deya so'rabdi Qorbobodan. – Ishlaringizga qarashib yurardim.

– Juda soz! Sen menga o'g'il bo'lasan. Yumushlarim juda ko'paygan, bir yordamchi kerak bo'lib turgandi o'zi, – iliq qarshi olibdi uni Qorbobo. – Sen bolajonlardan kelgan maktublarni ochib, Yangi yilda qanday sovg'a olish istagida ekanliklarini menga aytib turasan. Men esa ularni yasab, Archa bayramida egalariga tarqataman...

Ular ishga kirishib ketishibdi.

Bir kuni Qorbobo zarur yumush bilan o'rmonga ketganida, Elfning yoniga yovuz niyatli Qor malikasi kelib, shunday debdi:

– Bolajonlardan kelayotgan xatlarning mazmunini o'zgartirib qo'ysang, Qorboboning o'rnini egallaysan. Qarabsanki, bolajonlar Qorboboni emas, seni intiq kutadigan bo'lishadi.

Uning niyati xatlarni chalkashtirib, bolajonlarning Qorboboga bo'lgan ishonchini yo'qotish edi.

Yovuz Qor malikasining va dalariga uchgan Elf chiroyli archa o'yinchog'i so'ragan bolaning maktubini: «Menga qo'rqinchli masxaraboz kerak», deya, ertaklardagi qurbaqa malikani so'ragan bolaning xatini: «Menga tirik qurbaqa yuboring», deya o'zgartirib qo'yibdi.

Qorbobo ro'yxatni o'qib: «Voy-bo', bu narsalarni qayerdan topaman? Qiziq, shuncha yildan buyon qorbobolik qilaman-u, bunaqangi istaklarni endi ko'rishim», deya ajablanibdi.

Qorbobo yashaydigan o'lkada doimo qish hukmronlik qilgani uchun ham u tavqimda Yangi yil kirib keladigan kechani qizil qalam bilan belgilab borarkan. Elf ana shu qalamni o'g'irlab, Yangi yil kunini o'n kun orqaga surib, belgilab qo'yibdi. Ustaxonadagi ishchilarning tushlikka chiqishgandan foydalanib, ularning eng zarur asbob-uskunalarini buzib qo'yibdi.

– Ertaga Yangi yil kiradi. Qorbobo esa buadan bexabar. Qarabsizki, bolalar undan xafa bo'lishadi va ishonmay qo'yishadi, – deya qah-qah otib kulibdi Elf xufiyona.

Buni ishchilardan biri eshitib qolibdi va Qorboboga aytib beribdi.

U ustaxonaga borib, Elfni ko'chaga uloqtiribdi. Xonasidan bolajonlardan kelgan maktublarning aslini topib olibdi. Pingvinlar yordamida ular so'ragan o'yinchoqlarni yasab, Yangi yil oqshomida bolajonlarga topshiribdi.

Yovuz niyatli Qor malikasi va Elf o'z niyatlariga yetisholmabdi.

*Furqat KARIMOV,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumani*



Dabdurustdan berilgan bu savol biroz noo'rin tuyulgandir sizga? Zero, dars o'quv xonasida, oddiygina aytganda, sinfda turli usullarda olib borilishini har birimiz yaxshi bilamiz. Ijodkor, fidoyi ustozlarni esa «Murg'ak qalb me'mori», «Shoxda beshik eltgan ona bug'u», «Oltin uzukka naqsh muallimlar» deya alqaymiz. Kuni kecha Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 274-maktabda o'tkazilgan «Ochiq eshiklar kuni»ga tashrif buyurgan O'zbekiston Xalq shoiri Anvar Obidjon, «Boshlang'ich ta'lim» jurnali Bosh muharriri Zuhra Shokirova, faol muallif shoir Ravshan Isoqov, TSHXTBB Metodika markazi, Yunusobod TXTB uslubchilari, poytaxtdagi turli maktablardan tajriba almashish maqsadida kelgan o'qituvchilar o'quvchilar faolligi, ustozlar mahoratidan ko'ngillari to'lib qaytdilar. Zero, o'quvchilar tayyorlagan kichik risola va «kitobchalar, ko'rgazmalar, mehnat darsida tayyorlangan o'yinchog'-u bezaklar ko'zni quvontirar, ochiq dars-u tadbirlar aqlni shoshirar edi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari Aziza Jamolova, Dilfuza Oripova, Shohista To'raqulova, Iroda Mahkamova, Munira Shermonova o'tkazgan o'qish, matematika, mehnat darslari «sun'iy», yodlatilgan emas, jonli, tabiiyligi bilan ko'pchilik e'tiborini tortdi. O'quvchilarning dunyoqarashi, tasavvur doirasi kengligi, mustaqil fikrlay olishi, bilimdonligi, o'ndan ortiq kuzatuvchilarni «pisand qilmay», o'zlarini erkin tutishlari bir-ikki oylik tayyorgarlik mevasi emasligi yaqqol ko'rinib turardi. Ayniqsa, ularning turli kichik guruhlarga bo'linib, «Zakovat» o'yini tarzida bahslashishlari, «bir yoqadan bosh chiqarib» hamjihatlikda ishlashlari «Darsingiz qanday o'tadi?» degan savolni yuzaga keltirdi. Javoblar xolis bo'lishi uchun yolg'on gapirmaydigan, sir saqlamaydigan, beg'ubor qalb egalari – bolajonlarga yuqoridagi savol bilan murojaat qildik.

KUTUBXONADAGI DARS

Maktabimizda tez-tez «Yozuvchi darsi» o'tkazib turiladi. Yaqinda «Vatan tuyg'usi» fanidan amaliy mashg'ulot va «Biz – buyuk ma'naviyat egasimiz» mavzusidagi darsimiz kutubxonada o'tdi. O'zbekiston Xalq yozuvchisi Tohir Malik avval do'stlik, uni qadrlash haqida so'zlab berdilar. Keyin kutubxonada suhbatni davom ettirdik. Eshitgan rivoyatlarimiz asosida «Do'stlik – buyuk tuyg'u» va «Kitob – ma'naviyat xazinasini» mavzularida insholar yozdik.

Nilufar TOHIROVA,
6-«B» sinf o'quvchisi

Darsingiz qayerda va qanday o'tmoqda?

TABIATGA SAYR

Bugun ustozimiz Aziza opa Jamolova shoir Shuhratning «Birinci qor» she'rini o'qib berdilar. Sodda, quvnoq she'r ekan. Keyin bizga magnitofondan shu she'rga bastalangan qo'shiqni eshittirdilar. Hammamiz shu qo'shiqqa jo'r bo'lib, mazza qilib o'ynadik. Ustozimizning yaltiroq, oq rangli qor parchalari, ya'ni «4» va «5» baholarini olish uchun astoydil harakat qildik. Guruhlarimiz nomi ham «zo'r» edi: «Dekabr», «Yanvar», «Fevral» guruhlari. Ustozimizning «Tabiat qo'ynida sayr» tarzidagi darslarini juda yaxshi ko'ramiz. Ochiq havoda, qishda ko'm-ko'k archa, bahorda gulzor, kuzda oltin yaproqlar to'shalgan maktabimiz hovlisida o'tiladigan darsda rosa yayraymiz. Xotira maydonida o'tilgan «Xotira – muqaddas» darsi, «Mustaqillik maydoni»ga bo'lgan sayr ham yodimizda qoldi.

Shahzodbek USMONOV, G'ayrat TOHIROV,
3-«A» sinf o'quvchilari

SIRKIDAN QAYTIB, RASM CHIZDIK

Dilfuza opa Oripova bizning ustozimiz. Mehribonliklari, shirin so'zlari, ba'zida qattiqqo'lliklari – hammasi onamizga o'xshaydi. Yaqinda ustozimiz: «Bolalar, bir haftadan keyin sirkka boramiz, faqat tomosha uchun emas, ko'rganlaringiz asosida rasm chizishga ham tayyorlanib kelasizlar», dedilar. Sirk binosi juda hashamatli ekan. Manejdagi tomoshalar bizni sehrlab qo'ydi. O'sha ko'rganlarimiz ta'sirida tasviriy san'at darsida «Sirk sahnasidagi tomosha» mavzusida rasm chizdik. Rasmlarimiz jonli chiqdi, negaki, ko'rganlarimiz xotiramizda saqlanib qolgan edi. Ustozimiz buni bir necha marta qo'g'irchoq teatriga, muzeylarga ham olib borganlar. Darsimiz hayvonot bog'ida, muzeylarda ham o'tgan.

Shahnoza USMONOVA, 3-«B» sinf o'quvchisi

ADABIYOT MUZEYIDAGI DARS

Yangi yil arafasida biz Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyiga bordik. Sayohatbon Nasiba opa Fayziyeva «Navoiy hayoti va ijodi» bo'yicha 2 soatlik darsimizni qiziqarli o'tib berdilar. «Xamsa»ga ishlangan rasmlar, «Yetti go'zal», «Navoiy va Jomiy» suratlarini, buxorolik zardo'z qizlar tikkan gilam, milliy uslubdagi, toqili, naqshinkor, «uy», lavh va qadimiy qo'lyozmalarni hayratlanib tomosha qildik. Turli tillarga tarjima qilinib, devorlarga ilingan hikmatli so'zlarni o'qidik. Chet ellik va o'zbek navoiyshunos olimlari A.Qayumov, H.Hayitmetov, P.Shamsiyev, V.Zohidov va boshqalarning suratlarini ko'rdik. Muzeydan bir olam taassurot bilan qaytdik.

Dildora RAHIMXO'JAYEVA,
6-«B» sinf o'quvchisi,
Yulduz NABIYEVA, 9-«G» sinf o'quvchisi

SO'Z BERISHDI

Yaqinda odobnoma darsini o'tish uchun ustozimiz Munira opa Shermonova bizlarni «Qatag'on qurbonlari» shahidlar xotira majmuasiga olib berdilar. Televizorda ham ko'rgandim, lekin o'z ko'zing bilan ko'rganing boshqa ekan. Mustaqillik uchun kurashgan, bu yo'lda shahid bo'lgan Qodiriy, Cho'lpon kabi bobolarimizga munosib avlod bo'lishga sinfdoshlarimning hammasi so'z berishdi.

Gulchehra UBAYDULLAYEVA, Fazilat SHOKIROVA, 4-«A» sinf o'quvchilari

Mana, o'quvchilarning fikri bilan tanishdingiz. Ma'lum bo'ldiki, sayohat darslari, noan'anaviy mashg'ulotlar yuqori samara berdi. O'quvchilar yodida bir umr muhrlanib qoldi. Aziz bolajonlar, ishonchimiz komilki, sizning ustozlaringiz ham yodda qoladigan darslar o'tishayotgan bo'lsa kerak. Bizga ana shunday darslaringiz haqida yozib yuboring. «Boshlang'ich ta'lim» jurnali Bosh muharriri Zuhra Shokirova fidoyi ustozlaringiz ish tajribasini ommalashtirishga, ularni rag'batlantirishga doimo shay. Demak, maktublaringizni kutamiz. Yangi yilda yangicha darslar ko'p bo'lishini tilaymiz.

Mahmuda ZOIRXON qizi



Kitob javoningizga

«MILLAT BAYROG'I»

Mustaqillik yillarida fuqarolarning dunyoqarashi, yashash tarzi, dunyo haqidagi tasavvurlari tubdan o'zgardi. Inson nafaqat buguni, balki ertangi kunning orzu-o'ylari bilan yashab, ularni ro'yobga chiqarish uchun intiladi, mehnat qiladi. Bu esa ona Vatanimizning rivojlanishiga madad beradi.

Mustaqillik yillarida qanchadan-qancha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Yosh avlodning bilim cho'qqilarini egallashi uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Bu albatta yoshlarning yurtimiz tinchligining qadriga yetishga undaydi. Bobokalohlarimiz barpo etgan ziyoratgohlarning tiklanishi xalqimiz yuragida iftixor tuyg'usini paydo qildi. Muallif Husan Ermatovning nashrdan chiqqan «Millat bayrog'i» kitobida yuqoridagi fikrlar o'z ifodasini topgan. O'quvchilar ushbu kitobni o'qib, yurtimizning mustaqillik yillarida qo'lga kiritgan yutuqlari haqida ma'naviy ozuqa oladilar.

Dildora RO'ZIMAHAMADOVA

DASSAYEVDEK BO'LMOQCHI

Havas

Farrux Rahmatullayev 14 yosh. Poytaxtimizning Sergeli tumanida joylashgan 17-Bolalar va o'smirlar sport maktabida tahsil olgan. Jamoasi darvozasini raqiblar golidan himoya qilayotgan Farrux chet davlatlarga, jumladan, Qozog'istonda bo'lib o'tgan o'yinlarda o'z mahoratini ko'rsatdi.

Kelajakda Farrux rossiyalik sobiq darvozabon Renat Dassayevga o'xshagan zo'r darvozabon bo'lmoqchi. Uning harakatlaridagi ephillikni ko'rgan muxlislari Dassayevdek bo'la olasan, deya bashorat qilmoqdalar.

Gulnoza JUMAYEVA,
poytaxtdagi
300-maktabning
8-«D» sinf o'quvchisi



«Tong yulduzi» jamoasi sizni Yangi yil bilan tabriklaydi!



2008



<p>YANVAR</p> <p>Du 7 14 21 28</p> <p>Se 1 8 15 22 29</p> <p>Ch 2 9 16 23 30</p> <p>Pa 3 10 17 24 31</p> <p>Ju 4 11 18 25</p> <p>Sh 5 12 19 26</p> <p>Ya 6 13 20 27</p>	<p>FEVRAL</p> <p>Du 4 11 18 25</p> <p>Se 5 12 19 26</p> <p>Ch 6 13 20 27</p> <p>Pa 7 14 21 28</p> <p>Ju 1 8 15 22 29</p> <p>Sh 2 9 16 23</p> <p>Ya 3 10 17 24</p>	<p>MART</p> <p>Du 3 10 17 24 31</p> <p>Se 4 11 18 25</p> <p>Ch 5 12 19 26</p> <p>Pa 6 13 20 27</p> <p>Ju 7 14 21 28</p> <p>Sh 1 8 15 22 29</p> <p>Ya 2 9 16 23 30</p>	<p>APREL</p> <p>Du 7 14 21 28</p> <p>Se 1 8 15 22 29</p> <p>Ch 2 9 16 23 30</p> <p>Pa 3 10 17 24</p> <p>Ju 4 11 18 25</p> <p>Sh 5 12 19 26</p> <p>Ya 6 13 20 27</p>	<p>MAY</p> <p>Du 5 12 19 26</p> <p>Se 6 13 20 27</p> <p>Ch 7 14 21 28</p> <p>Pa 1 8 15 22 29</p> <p>Ju 2 9 16 23 30</p> <p>Sh 3 10 17 24 31</p> <p>Ya 4 11 18 25</p>	<p>IYUN</p> <p>Du 2 9 16 23 30</p> <p>Se 3 10 17 24</p> <p>Ch 4 11 18 25</p> <p>Pa 5 12 19 26</p> <p>Ju 6 13 20 27</p> <p>Sh 7 14 21 28</p> <p>Ya 1 8 15 22 29</p>
<p>IYUL</p> <p>Du 7 14 21 28</p> <p>Se 1 8 15 22 29</p> <p>Ch 2 9 16 23 30</p> <p>Pa 3 10 17 24 31</p> <p>Ju 4 11 18 25</p> <p>Sh 5 12 19 26</p> <p>Ya 6 13 20 27</p>	<p>AVGUST</p> <p>Du 4 11 18 25</p> <p>Se 5 12 19 26</p> <p>Ch 6 13 20 27</p> <p>Pa 7 14 21 28</p> <p>Ju 1 8 15 22 29</p> <p>Sh 2 9 16 23 30</p> <p>Ya 3 10 17 24 31</p>	<p>SENTABR</p> <p>Du 1 8 15 22 29</p> <p>Se 2 9 16 23 30</p> <p>Ch 3 10 17 24</p> <p>Pa 4 11 18 25</p> <p>Ju 5 12 19 26</p> <p>Sh 6 13 20 27</p> <p>Ya 7 14 21 28</p>	<p>OKTABR</p> <p>Du 6 13 20 27</p> <p>Se 7 14 21 28</p> <p>Ch 1 8 15 22 29</p> <p>Pa 2 9 16 23 30</p> <p>Ju 3 10 17 24 31</p> <p>Sh 4 11 18 25</p> <p>Ya 5 12 19 26</p>	<p>NOYABR</p> <p>Du 3 10 17 24</p> <p>Se 4 11 18 25</p> <p>Ch 5 12 19 26</p> <p>Pa 6 13 20 27</p> <p>Ju 7 14 21 28</p> <p>Sh 1 8 15 22 29</p> <p>Ya 2 9 16 23 30</p>	<p>DEKABR</p> <p>Du 1 8 15 22 29</p> <p>Se 2 9 16 23 30</p> <p>Ch 3 10 17 24 31</p> <p>Pa 4 11 18 25</p> <p>Ju 5 12 19 26</p> <p>Sh 6 13 20 27</p> <p>Ya 7 14 21 28</p>